



MUHAMMAD HUSAYN HAYKALNING “ZAYNAB” ROMANI TILINING LEKSIK VA STILISTIK XUSUSIYATLAR HAQIDA

Valijon Murtazoyev

Samarqand davlat chet tillar insituti o'qituvchisi

Avazova Maftuna

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zaynab romanining leksik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda agrar-milliy leksika, psixologik-emotsional birliklar, xalqona nutq elementlari hamda poetik tabiat tasvirining badiiy funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, roman stilistikasida romantik realizm unsurlari, metaforik ifoda tizimi, diglossiya hodisasi va fatalistik qarashlarning til orqali ifodalanishi ilmiy asosda tahlil etilgan. Asarda tilning estetik va ijtimoiy ongni ifodalovchi vosita sifatidagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: arab romani, realizm, romantik realizm, leksik qatlam, stilistika, agrar leksika, metafora.

XX asr boshlarida arab adabiyotida roman janrining shakllanish jarayoni sezilarli darajada jadallashdi. Bu davr arab adabiy tafakkurining an'anaviy nasriy shakllardan modern badiiy tizimga o'tish bosqichi sifatida xarakterlanadi. Ayniqsa, Yevropa adabiyoti, xususan fransuz realizmi va romantizmi ta'siri ostida arab romanchiligida yangi poetik tamoyillar shakllana boshladi. Ana shunday tarixiy-adabiy jarayonda yaratilgan Zaynab arab realizmining dastlabki va eng muhim namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Roman 1914-yilda dastlab anonim tarzda “Misrlik dehqon” taxallusi ostida nashr etilgan bo'lib, keyinchalik uning muallifi sifatida Muhammad Husayn Haykal nomi ma'lum bo'lgan.

Adabiyotshunoslar, jumladan M. M. Badawi¹⁹ hamda Roger Allen²⁰, mazkur romanni arab romanining realizm bosqichiga o'tishidagi muhim estetik hodisa sifatida baholaydilar. Ularning ta'kidlashicha, “Zaynab” klassik arab nasridan modern roman poetikasiga o'tishning yorqin namunasi bo'lib, unda realizm, romantizm va milliy ijtimoiy tafakkur o'zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo'ladi.

¹⁹Badawi, M. M. *A Critical Introduction to Modern Arabic Poetry*. – Cambridge University Press, 1975

²⁰Allen R. *The Arabic Novel: An Historical and Critical Introduction*. – Syracuse University Press, 1995



Roman tilining muhim xususiyatlaridan biri klassik adabiy arab tili – fuṣḥā bilan xalqona nutq elementlarining uygʻunlashganidadir. Muallif bir tomondan adabiy tilning estetik imkoniyatlaridan foydalansa, ikkinchi tomondan ogʻzaki xalq nutqi unsurlarini matnga olib kiradi. Bu hol arab tilidagi diglossiya hodisasining badiiy aksidir. Natijada asar tili tabiiy, hayotiy va realistik tus oladi. Ayniqsa, dialoglarda xalqona sintaksis va sodda ifoda vositalarining qoʻllanishi obrazlarni individuallashtirishga hamda ijtimoiy tabaqalanishni koʻrsatishga xizmat qiladi.

Roman leksik tizimining asosiy qatlamini agrar-milliy birliklar tashkil etadi. Asarning makoniy markazi Misr qishlogʻi boʻlgani sababli til strukturasi dehqonchilik, yer, hosil, mavsumiy mehnat, tabiat va qishloq hayoti bilan bogʻliq semantik maydon ustuvorlik qiladi. Bu birliklar romanning milliy koloritini yaratishda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Matnda uchraydigan “برائحة مشبع الهواء” (“Shamol bugʻdoy poyalari orasidan shivirlaydi”), “السنابل بين النسيم همس” (“Havo yerning hidi bilan toʻyingan”), “الأرض” (“Keng dalalarning sukunati”), “الواسعة الحقول صمت” (“Yoʻl dalalar orasidan oʻtadi”) kabi birliklar agrar leksikaning tipik namunalaridir.

Mazkur birliklar nafaqat tabiat tasvirini yaratadi, balki milliy mentalitetning til orqali modellashtirilishini ham taʼminlaydi. Ayniqsa, “yer” – “الأرض” konsepti asarda koʻp qatlamli semantik yuklama kasb etadi. Yer iqtisodiy asos, dehqon hayotining manbai, axloqiy qadriyat va milliy identitet belgisi sifatida talqin qilinadi. “أصحابها تخون لا الأرض” (“Yer egalariga xiyonat qilmaydi”) iborasida yer axloqiy subyekt sifatida personifikatsiya qilinadi. Bu poetik personifikatsiya agrar dunyoqarashning estetik shaklini ifodalaydi. Agrar leksika romanning umumiy stilistik tonalligini belgilab, milliy kolorit yaratadi, ijtimoiy makonni aniqlashtiradi va qahramon ruhiyatini tashqi muhit bilan bogʻlaydi. Shu tariqa agrar-milliy qatlam roman tilining asosiy tayanch strukturasi sifatida namoyon boʻladi.

Roman tilining ikkinchi muhim qatlamini psixologik va emotsional birliklar tashkil etadi. Haykal realizmi tashqi voqelikni tasvirlash bilan cheklanmay, insonning ichki ruhiy kechinmalarini ham markazga qoʻyadi. Shu sababli romanda metaforik va hissiy birliklar keng qoʻllanadi. Jumladan, “التقاليد أسير القلب” (“Yurak anʼanalar asiri”), “الألم شاهد الدمع” (“Koʻzyosh ogʻriqning guvohi”), “الحرية تتوق الروح” (“Ruh erkinlikka intizor”), “الصدور في المكتوم الحب” (“Koʻkslarda yashiringan sevgi”), “الأحلام تمر الأيام” (“Kunlar tushdek oʻtadi”), “المكسور الحلم” (“Singan orzu”) kabi birliklar chuqur metaforik mazmunga ega.

Mazkur birliklar sintaktik jihatdan sodda boʻlsa-da, semantik jihatdan murakkab va koʻp qatlamli maʼno yuklaydi. Masalan, “التقاليد أسير القلب” iborasida “qalb” va “anʼana” oʻrtasidagi semantik ziddiyat individual tuygʻu bilan ijtimoiy norma toʻqnashuvini ifodalaydi. Bu metafora orqali muallif patriarxal jamiyat bosimini ramziy shaklda koʻrsatadi. Psixologik leksikaning asosiy xususiyatlari sifatida abstrakt tushunchalarning ustuvorligi, metaforik ifoda vositalari, lirik ohang va



fatalistik qarashlarning til orqali ifodalanishini ko'rsatish mumkin. Masalan, “القدر” (Taqrir istakdan kuchli) iborasida taqdir konsepti inson irodasidan ustun qo'yiladi. Bu esa arab jamiyatidagi fatalistik dunyoqarashning lingvistik aksidir. Psixologik leksika, ayniqsa, Zaynab obrazining ichki dramatizmini ochishda muhim rol o'ynaydi. Ayol ruhiyati estetiklashtiriladi, ijtimoiy bosim esa ramziy-metaforik shaklda ifodalanadi. Shu sababli psixologik qatlam romanning ideologik va estetik markaziga yaqin turadi.

Roman tilining yana bir muhim qatlami xalqona nutq elementlaridir. Arab til muhitida mavjud bo'lgan diglossiya hodisasi – ya'ni adabiy til va og'zaki nutqning parallel yashashi – asar stilistikasida ham seziladi. Haykal bu ikki qatlamdan mahorat bilan foydalanadi. Dialoglarda xalqona ifoda va sodda sintaksis ustuvorlik qiladi. Bu esa obrazlarni individuallashtiradi, ijtimoiy tabaqalanishni ko'rsatadi va realizmni kuchaytiradi. Masalan, dehqonlar nutqida sodda xalqona birliklar qo'llansa, ziyolilar nutqida adabiy shakllar ustunlik qiladi. Shu tariqa til orqali ijtimoiy stratifikatsiya ifodalanadi.

Xalqona birliklar romanda nutqni tabiiylashtirish, realistik effektni oshirish, milliy mentalitetni jonli ko'rsatish va dialogni dramatiklashtirish singari badiiy funksiyalarni bajaradi. Natijada roman tili sun'iylikdan xoli, hayotiy va ishonchli ko'rinish kasb etadi.

Roman tilida patriarxal jamiyatga xos ijtimoiy-madaniy tushunchalar ham keng qo'llangan. Nikoh, urf-odat, ijtimoiy majburiyat, sha'n, obro', sharm-hayo kabi birliklar jamiyat strukturasini ochib beradi. Ayniqsa, “an'ana” (تقاليد), “taqdir” (قدر) kabi tushunchalar shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Til bu yerda ijtimoiy nazorat mexanizmini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayol erkinligining cheklanganligi ham til orqali ochib beriladi. Shu bois ijtimoiy-madaniy leksika romanning ideologik asosini shakllantiruvchi muhim qatlam hisoblanadi.

Roman tilining estetik qatlamini poetik tabiat tasvirlari tashkil etadi. Quyosh nuri, shamol shiviri, tun sokinligi, dalalar sukunati kabi birliklar asarning lirik ohangini shakllantiradi. “العميق الليل سكون” (“Yarim tun sukunati”), “معنى ألف تحمل نظرة” (“Ming ma'noli nigoh”) kabi poetik birliklar estetik intensivlikni oshiradi. Tabiat tasviri qahramon ruhiyati bilan parallel holda beriladi. Bu esa romantik realizmning muhim belgilaridan biridir.

Muhammad Husayn Haykalning Zaynab stilistik jihatdan romantik realizm unsurlarini mujassamlashtirgan asar sifatida baholanadi. Asarda voqelik realistik asosda tasvirlansa-da, lirik ohang va romantik poetika ustuvorlik qiladi. Bu xususiyat XX asr boshlarida arab adabiyotiga fransuz realizmi va romantizmi ta'siri bilan bog'liqdir.

Roman stilistikasida tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi parallelizm alohida o'rin tutadi. “السنابل بين النسيم همس” (“Shamol bug'doy poyalari orasidan shivirlaydi”),



“العميق الليل سكون” (“Yarim tun sukunati”), “كالأحلام تمر الأيام”, “Kunlar tushdek o‘tadi”) kabi birliklar metaforik va poetik xarakterga ega. Ayniqsa, “كالأحلام تمر الأيام” iborasida vaqt tushunchasi romantik tashbeh orqali ifodalanadi. Bu usul romantizm estetikasining muhim tamoyillaridan biri – subyektiv kechinmani tashqi manzara bilan uyg‘unlashtirish prinsipiga mos keladi.

Haykal uslubida poetik epitetlarning ko‘pligi, tabiatning personifikatsiyasi, hissiy intensivlik va lirik ichki monolog kabi romantik elementlar kuzatiladi. Masalan, “الألم شاهد الدمع” (“Ko‘zyosh og‘riqning guvohi”) iborasida ko‘zyosh guvoh sifatida personifikatsiya qilinadi. Bu stilistik usul hissiy drammatizmni kuchaytiradi va qahramon ichki dunyosining poetik ifodasiga xizmat qiladi.

“Zaynab” stilistikasining yana bir muhim jihati ifodaning soddaligi va ravonligidir. Haykal murakkab va balandparvoz klassik uslubdan voz kechib, sodda va tushunarli tilni tanlaydi. Bu esa arab romanchiligining realizm bosqichiga o‘tishining muhim belgisi hisoblanadi. Roman sintaksisida ortiqcha ritorik konstruksiyalar kamaytirilgan, dialoglar tabiiy va voqea tasviri aniq ifodalangan. “التقاليد أسير القلب” (“Yurak an‘analar asiri”) kabi sodda sintaktik birliklar ham chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunni ifodalay oladi. Bu soddalik stilistik minimalizm emas, balki mazmuniy zichlik bilan uyg‘unlashgan ifoda shaklidir.

Badawi ta’kidlashicha, Haykal arab nasrida ortiqcha saj’ va murakkab balog‘at unsurlaridan voz kechib, realizmga xos ravon ifoda modelini shakllantirgan. Bu jihat arab romanchiligida yangi estetik paradigmaning yuzaga kelganini ko‘rsatadi²¹.

Roman stilistikasining markaziy xususiyatlaridan biri metaforik ifoda tizimidir. Metafora asarda oddiy bezak vositasi emas, balki semantik strukturaning asosiy tashkil etuvchi mexanizmi sifatida ishlatiladi. “للحرية تنشق الروح”, “التقاليد أسير القلب”, “المكسور الحلم”, “الرغبة من أقوى القدر” kabi birliklar asardagi hissiy va falsafiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi.

Bu metaforalar ramziy xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy tanqidni yumshoq estetik shaklda ifodalaydi. Masalan, “Yurak an‘analar asiri” metaforasi patriarxal tuzumning bosim mexanizmini ko‘rsatadi. “Ta’qdir istakdan kuchli” iborasi esa fatalistik mentalitetni aks ettiradi. Metaforik tizimning asosiy funksiyalari sifatida ijtimoiy tanqidni estetiklashtirish, qahramon ruhiyatini umumlashtirish va individual drammatizmni kollektiv ong darajasiga ko‘tarishni ko‘rsatish mumkin.

Roman stilistikasida tabiat tasviri muhim o‘rin tutadi. Tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi parallelizm romantik realizmning asosiy belgilaridan biridir. Dalalar sukunati ichki sokinlikni, shamol shiviri yashirin tuyg‘ularni, tun zulmati esa ruhiy iztirobni ifodalaydi. “السنابل بين النسيم همس” iborasi tashqi manzara bo‘lishiga qaramay,

²¹Badawi, M. M. *A Critical Introduction to Modern Arabic Poetry*. – Cambridge University Press, 1975



ichki kechinma fonini yaratadi. Bu parallelizm poetik effektini kuchaytiradi va tasvirning lirik intensivlikasini ta'minlaydi.

Roman stilistikasida dialoglar ham alohida ahamiyatga ega. Haykal dialogni dramatik vosita sifatida qo'llaydi. Nutq orqali muallif ijtimoiy tabaqalanish, madaniy tafovut va obraz xarakterini ochadi. Dialoglarning qisqa va mazmunli replikalarga asoslanishi, ortiqcha ritorikadan xoli bo'lishi hamda psixologik yuklamaga ega ekanligi romanning drammatizmini oshiradi.

Roman stilistikasida fatalistik qatlam ham muhim o'rin tutadi. Taqdir, qismat va iroda kabi tushunchalar muntazam ravishda uchraydi. “الرغبة من أقوى القدر” iborasi qisqa bo'lsa-da, chuqur falsafiy mazmunni o'zida mujassamlashtiradi. Bu qatlam ijtimoiy determinizmni ko'rsatish, shaxs erkinligi muammosini ochish va dramatik yakun uchun zamin yaratish funksiyalarini bajaradi.

Zaynab romanining leksik va stilistik tizimi ko'p qatlamli hamda funksional jihatdan boydir. Agrar-milliy leksika makon va milliy koloritni belgilaydi, psixologik leksika ichki drammatizmini ochadi, xalqona nutq realizmni kuchaytiradi, ijtimoiy-madaniy birliklar patriarxal tuzumni ko'rsatadi, poetik tabiat tasviri esa romantik ohang yaratadi. Shu tariqa roman stilistikasi arab romanchiligida klassik balog'atdan modern realizmga o'tish bosqichini ifodalaydi hamda tilni estetik va ijtimoiy ongni birlashtiruvchi muhim vosita sifatida namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allen R. *The Arabic Novel: An Historical and Critical Introduction*. – Syracuse University Press, 1995.
2. Badawi, M. M. *A Critical Introduction to Modern Arabic Poetry*. – Cambridge University Press, 1975.
3. Badawi, M. M. *A Short History of Modern Arabic Literature*. Oxford University Press, 1992.
4. Hourani, Albert. *Arabic Thought in the Liberal Age 1798–1939*. Cambridge University Press, 1983.
5. Raxmatovich, A. S. (2025). TURIZM SOHASI LEKSIKASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY TERMINLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 250-257.
6. Qurbonov, B. (2026). “LATOYIFNOMA” TAZKIRASIDA TANQIDIY YONDASHUV VA BADIY BAHOLASH MEZONLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 6(3), 173-180.